

## KIMYO 8-SINF 1-5&amp;

	SAVOL	JAVOB
1	Kimyoviy hodisalarda moddaning bo'linmaydigan eng kichik zarrasi qanday nomlanadi?	Atom
2	"Atom" so'zining ma'nosi nima?	Bo'linmas
3	Kimyoviy element nima?	Atomlarning muayyan turi
4	Qaysi elementning lotincha nomi Hydrogenium (suv hosil qiluvchi) deb ataladi?	Vodorod
5	$^{12}\text{C}$ (izotopi) atomining massasini 1/12 qismidan necha marta katta ekanligini bildiradigan son nima deb ataladi?	Atomning nisbiy massasi
6	Elementning nisbiy atom massasiga son jihatdan teng bo'lib grammlarda ifodalangan qiymat qanday nomlanadi?	Molyar massa
7	Modda tarkibining kimyoviy belgilar va (zarur bo'lsa) indekslar yordamida ifodalanishi nima deb nomlanadi?	Kimyoviy formula
8	Element atomlarining boshqa elementning muayyan sondagi atomlarini birlashtirib olish xususiyatiga nima deyiladi?	Valentlik
9	Valentlik o'lchov birligi qilib qaysi elementning valentligi qabul qilingan?	Vodorod
10	Biri kislorod bo'lgan ikki elementdan tarkib topgan murakkab moddalar qanday nomlanadi?	Oksid
11	Oksidlar suv, asos va kislotalar bilan reaksiyaga kirishishiga qarab qanday guruhlarga bo'linadi?	Asosli, kislotali, amfoter, betaraf
12	Peroksidlarda kislorodning oksidlanish darajasi nechiga teng?	-1
13	Metall atomi va bir yoki bir necha gidroksid guruh (OH)dan iborat bo'lgan murakkab moddalar qanday nomlanadi?	Asos
14	Asoslar suvda erishi va erimasligiga qarab qanday guruhlarga ajratiladi?	Suvda eriydigan asoslar; Suvda erimaydigan asoslar
15	Ham kislota, ham ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladigan asoslar qanday nomlanadi?	Amfoter asoslar
16	Molekulasi tarkibida metallarga o'z o'rnini bera oladigan vodorod atomlari va kislota qoldig'idan tarkib topgan murakkab moddalar qanday nomlanadi?	Kislota
17	Kislotalar molekulasi tarkibida kislorod atomining bo'lishi yoki bo'lmasligiga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?	Kislorodli kislotalar; Kislorodsiz kislotalar;
18	Molekulasi metall atomi va kislota qoldig'idan tashkil topgan murakkab moddalar qanday nomlanadi?	Tuzlar
19	Ikki xil metall va bitta kislota qoldig'idan tashkil topgan tuzlar qanday nomlanadi?	Qo'sh tuz
20	Bir xil metall va ikki xil kislota qoldig'idan hosil bo'lgan tuzlar qanday nomlanadi?	Aralash tuz
21	Qaysi olim "moddiy unsurlarning eng kichik birligi — atomlar haqida, ularni yanada kichikroq zarralarga bo'linishi to'g'risida" fikrlar bergan?	Ar-Roziy
22	Qaysi olimlarning asarlarida moddiy dunyo tarkibiy qismlari, ma'dan va qimmatbaho toshlarni sinflash haqida ma'lumotlar keltirilgan	Forobiy va Beruniy
23	Qaysi olim o'z davrida mavjud dorilarni xossalari asosida toifalarga bo'lib chiqqan?	Abu Ali ibn Sino
24	XVIII asrning oxirlariga kelib fanga nechta element ma'lum bo'lgan?	30 taga yaqin
25	XIX asrning 60- yillariga kelib fanga nechta element ma'lum bo'lgan?	63 ta

26	Kimyoviy elementlarni dastlabki toifalashda ularning qanday belgilari asos qilib olingan?	Ko'zga tashlanadigan belgilari
27	Qaysi metall suyuq agregat holatda bo'ladi?	Hg
28	Tipik metallarning gidroksidlari nima deb ataladi?	Asos
29	Metallmaslarning gidroksidlar nima deb ataladi?	Kislota
30	Metallarning gidridlari qanday agregat holatda bo'ladi?	Qattiq
31	Metallmaslarning gidridlari qanday birikmalar?	Uchuvchan
32	Metallarga ham, metallmaslarga ham xos bo'lgan xususiyatlarni namoyon qiluvchi elementlar qanday nomlanadi?	Amfoter elementlar
33	Ishqoriy metallar barcha birikmalarida qanday valentlikni namoyon qiladi?	1
34	Ftorning oddiy sharoitdagi agregat holati qanday?	Och-sariq gaz
35	Xlorning oddiy sharoitdagi agregat holati qanday?	Sarg'ish-yashil gaz
36	Bromning oddiy sharoitdagi agregat holati qanday?	Qoramtir-qo'ng'ir suyuqlik
37	Yodning oddiy sharoitdagi agregat holati qanday?	To'q-kulrang qattiq kristall
38	Inert gazlarning molekulari necha atomli?	Bir
39	Nima uchun VIII guruh elementlari inert elementlar deb ataladi?	Kimyoviy reaksiyaga deyarli kirishmaganligi uchun
40	Qaysi olim "har bir atom mayda bo'laklar bilan bo'shliqlardan iborat" deb fikrni bildirgan?	Ar-Roziy
41	Atomlarni bo'linmaydigan zarrachalar deb qaraydigan olimlarga qarshi o'z fikrlarini bildirgan olim kim?	Abu Rayhon Beruniy
42	Qaysi olim tabiiy kimyoviy birikmalarni tarkibi va xossalariga ko'ra sinflarga toifalashtirgan?	Abu Ali ibn Sino
43	Qaysi olim kimyoviy element eng oddiy va kimyoviy jarayonlarda bo'linmaydigan zarracha bo'lib, u murakkab moddalar tarkibiga kirishini tushuntirdi?	R.Boyl
44	Qaysi olim massaning saqlanish qonunini kashf etgan?	1748-yilda M.V.Lomonosov
45	Qaysi olim tarkibning doimiylik qonunini kashf etdi?	1808-yilda J.L.Prust
46	Qaysi olim atom-molekular ta'limotni rivojlantirdi va atom massa tushunchasini fanga kiritdi?	1803-1804-yillarda Djon Dalton
47	Qaysi olim 46 ta kimyoviy elementning atom massalari asosida kimyoviy elementlar jadvalini tuzdi?	1814-yilda Y.Ya.Berselius
48	Qaysi olim elementlarning atom massalariga asoslanib triadalar nazariyasini taklif etdi?	1817-1829-yillarda I.V.Debereyner
49	Qaysi olim izomeriyani – ayni bir tarkibli molekulaga bir necha modda to'g'ri kelishini kashf qildi?	1822-yilda V.Yuler
50	Qaysi olim valentlik tushunchasini fanga kiritgan?	1853-yilda Franklend
51	Qaysi olim uglerod atomini to'rt valentli ekanligini aniqladi?	1858-yilda A.Kekule
52	Qaysi olim organik birikmalarning tuzilish nazariyasini kashf etgan?	1861-yilda A.M.Butlerov
53	Qaysi olim kimyoviy elementlarning silindr shaklidagi jadvalni yaratgan?	1862-yil A.de-Shankurtua
54	Qaysi olim elementlarning atom massalari ortib borishiga asoslangan jadvalni taklif qilgan?	1864-yilda Yu.L.Meyer
55	Qaysi olim elementlar ekvivalentlariga asoslangan oktavalalar qonunini taklif etgan?	1865-yilda J.Nyulends
56	Qaysi olim 1869-yilda davriy qonunni kashf etdi?	D.I.Mendeleyev